



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

DOI: 10.67227

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 6

2026

YOSHLARDA MILLIY QADRIYATLARGA MUNOSABAT SOTSIOLOGIK SO'ROVNOMA TAHLILI

Islomova Odinaxon Abdusalom qizi
Farg'ona davlat universiteti, magistrant

Annotatsiya

Mazkur maqolada yoshlarda milliy qadriyatlarga munosabatni o'rganish bo'yicha o'tkazilgan kichik sotsiologik tadqiqot natijalari yoritilgan. Qolaversa, yoshlarning milliy qadriyatlar tizimiga bo'lgan munosabati, ularning qadriyatlar transformatsiyasi jarayonidagi o'rni hamda globallashuv sharoitida milliy identitetni mustahkamlash masalalari tahlil qilingan. Tadqiqotda so'rovnoma, suhbat va kontent tahlili metodlari orqali yosh avlodning urf-odatlar, tarixiy meros, madaniy an'analarga munosabati o'rganildi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, axborot texnologiyalari va ommaviy madaniyat ta'siri ostida yoshlar ongida zamonaviy va milliy qadriyatlar uyg'unlashuvi davom etmoqda. Shu bilan birga, ayrim hollarda an'anaviy qadriyatlarga nisbatan befarqlik va individualizm kuchayganligi kuzatildi. Maqolada yoshlar orasida milliy o'zlikni anglashni mustahkamlash, ularni madaniy merosga hurmat ruhida tarbiyalash bo'yicha taklif va tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: yoshlar, milliy qadriyatlar, milliy identitet, globallashuv, sotsiologik tahlil, respondent, madaniyat, madaniy meros.

ОТНОШЕНИЕ МОЛОДЕЖИ К НАЦИОНАЛЬНЫМ ЦЕННОСТЯМ: АНАЛИЗ СОЦИОЛОГИЧЕСКОГО ОПРОСА

Исломова Одинахон Абдусалом кизи
Ферганский государственный университет, магистрантка

Аннотация

В данной статье представлены результаты небольшого социологического исследования, направленного на изучение отношения молодежи к национальным ценностям. Также анализируются восприятие молодежью системы национальных ценностей, их роль в процессе трансформации ценностей и вопросы укрепления национальной идентичности в условиях глобализации. С помощью методов опроса, интервью и контент-анализа были изучены отношения молодого поколения к обычаям, историческому наследию и культурным традициям. Результаты показали, что под воздействием информационных технологий и массовой культуры в сознании молодежи продолжается синтез современных и традиционных ценностей. Вместе с тем в отдельных случаях наблюдаются безразличие к традиционным ценностям и рост индивидуализма. В статье представлены рекомендации по укреплению национального самосознания среди молодежи и воспитанию уважения к культурному наследию.

Ключевые слова: молодежь, национальные ценности, национальная идентичность, глобализация, социологический анализ, респондент, культура, культурное наследие.

YOUTH'S ATTITUDE TOWARDS NATIONAL VALUES: ANALYSIS OF A SOCIOLOGICAL SURVEY

Islomova Odinaxon Abdusalom qizi
Fergana State University, Master's Student

Abstract

This article presents the results of a small sociological study conducted to examine young people's attitudes toward national values. It also analyzes youth perceptions of the national value system, their role in the process of value transformation, and issues of strengthening national identity in the context of globalization. Using survey, interview, and content analysis methods, the study explores young people's attitudes toward customs, historical heritage, and cultural traditions. The findings indicate that under the influence of information technologies and mass culture, a synthesis of modern and traditional values is taking place in the minds of the youth. However, in some cases, indifference toward traditional values and an increase in individualism were also observed. The article provides recommendations for strengthening national identity among young people and fostering respect for cultural heritage.

Keywords: youth, national values, national identity, globalization, sociological analysis,


respondent, culture, cultural heritage.

Bugungi globallashuv davrida yoshlarning milliy qadriyatlarga munosabati dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Chunki zamonaviy axborot oqimi, turli madaniy ta'sirlar va texnologiyalar taraqqiyoti yoshlarda dunyoqarashning kengayishiga xizmat qilsa-da, ayrim hollarda milliy identitetning susayishiga ham olib kelishi mumkin. Shu sababli yosh avlodda milliy qadriyatlarga hurmat, vatanparvarlik, tarixiy xotiraga e'tibor va ma'naviy merosni qadrlash hissini shakllantirish jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan sanaladi.

Milliy qadriyatlar — bu xalqning tarixi, dini, tili, urf-odatlar, an'analar, axloqiy me'yorlari va ma'naviy boyliklaridir. Yoshlar orasida olib borilayotgan so'rovlar shuni ko'rsatadiki, aksar yoshlar milliy urf-odatlarini qadrlaydi, ularni zamonaviy hayotga moslashtirish zarurligini ta'kidlaydi. Shu bilan birga, ba'zi yoshlar orasida g'arbona turmush tarzi va internet madaniyatining haddan ziyod ta'siri natijasida milliy qadriyatlardan chekinish holatlari ham kuzatilmoqda.

Millat millat bo'lib shakllanishi uchun uning boshqalardan ajralib turadigan o'z madaniyati, urf-odatlar va qadriyatlari bo'lishi kerak. Har bir xalqning qadriyat va an'analar asrlardan asrlarga o'tib, sayqallanib va yanada boyib avlodlarga yetib keladi. Ammo yillar sinoviga bardosh bera olmagan qadriyatlarning unutilayotgani ko'ngillarni xira qilmoqda.

O'zbek xalqining ham ming asrlik madaniyatining saqlanib, millatimiz qalbiga singib, cheksiz sadoqat, ehtirom namunasini ifodalab kelayotgani boy tariximiz bilan izohlanadi, deyishimiz mumkin. Shunday boy madaniyatimiz bugungi kunda qay darajada e'zozlanmoqda, qadriyatlarimizga qanday amal qilinmoqda? Mazkur savollarga javob topish maqsadida biz "Bugungi yoshlarda milliy qadriyatlarga munosabat" mavzusida sotsiologik so'rovnoma o'tkazdik. Yoshlar saylgohida o'tkazilgan so'rovnomamizning asosiy ishtirokchilarini yoshlar tashkil etgani o'rganilayotgan muammo bo'yicha ayni muddao bo'ldi. 50 nafar respondent ishtirok etgan anketamizda "milliy qadriyat deganda nimani tushunasiz?" deya berilgan dastlabki savolga respondentlarimizning 21%i ota-ona, qarindosh-urug'chilik munosabatlari, 17% qismi marosimlar va 12%i milliy kiyimlar variantini belgilaganlar. Kam sonli respondentlar esa diniy bag'rikenglik, insonparvarlik, ajdodlar merosi, milliy raqslar va bunyodkorlik javoblarini tanlaganlar. Yuqoridagi savoldan kelib chiqib, respondentlarning milliy qadriyatlarga qay darajada amal qilishini bilish uchun "Siz qadriyatlarimizga qay darajada amal qilasiz?" degan savolni berdik. Ko'pgina respondentlarimiz mazkur shkalali savolga o'rtacha 3 ball berganliklari sotsial hayotimizda milliy qadriyatlarimizga bo'lgan munosabatning hanuz iliq ekanligini bildiradi. Jamiyat a'zolari milliy qadriyatlarga amal qilishlari, o'ylaymizki, ijobiy natijalarga sabab bo'lishi mumkin.



Bugungi kunda milliy qadriyatlarimizning bevosita yoshlar ma'naviyatiga hamda tarbiyasiga ta'sir etish masalasi dolzarb hisoblanadi. Kelajak egalari bo'lmish yosh avlod xalqimizning milliy an'analar ruhida tarbiyalansa, avvalo, ularning qalbida millatga muhabbat, Vatandan faxrlanish hissi shakllanadi. So'rovnomamizda bu masalaga fuqarolar fikrini o'rganish bo'yicha berilgan savolimizga "milliy qadriyatlar yoshlar ma'naviy madaniyatini yuksaltiradi" javobi 19 ta, "ajdodlar merosiga hurmat ruhida tarbiyalaydi" varianti 10 ta, "milliy o'zlikni anglashga yordam beradi" javobi 17 ta, "unitilayotgan mentalitetni asrab qolishga yordam beradi" javobi 12 ta va "men uchun zamonaviylik muhim" varianti esa 2 ta ovoz yig'gan. Ko'rinib turibdiki, qatnashchilar milliy qadriyatlarga befarq emas. Shu boisdan, agar

ularga ish, o'qish yoki jamoat joylarida milliy kiyimlar kiyishga ruxsat berilganda, kiygan bo'larmidingiz, deb savol berganimizda, 60% ishtirokchilar kiyishlarini ta'kidlaganlar. Chunki ular milliy madaniyatimizni rivojlantiradi, oliy qadriyat, milliylikimiz ramzi, yoshlarni tarbiyalaydi, insonni prinsipial ko'rsatadi, bu uslubda kiyinish yoqadi va chiroyli, urf-odatlarimiz yo'qolib ketmasligi uchun, bu kiyimlardan faxrlanaman va jamoat joylarida milliy kiyimda yuraman, deb izoh qoldirganlar.

Shu bilan bir qatorda, 40% respondentlarimiz har joyning o'z formasi bor, chiroyli emas, zamonga qarab kiyinish kerak, bunday kiyinishni yoqtirmayman, noqulay, kulgi bo'lmaslik uchun kiymayman, har bir joyga munosib kiyinib borish kerak, deb fikr bildirganlar.

Zamonaviy globallashuv jarayoni natijasida ko'plab an'analarimiz zamonaviy tus olib, asl ma'nosini yo'qotmoqda. Milliy qadriyatlarimizning yangicha mazmunda targ'ib qilinishi esa ularning nufuzini pasaytirishi mumkin.

Mazkur dolzarb masalaga yechim topish maqsadida qilgan murojaatimizda ko'p sonli respondentlarimiz milliy tanlovlar tashkil etish (15), milliy kiyimlar kunini belgilash (14) va farzandlar tarbiyasida milliylikni targ'ib qilish (14) variantlarini belgilaganlar.



Qolgan respondentlar esa to'y va boshqa marosimlarni milliy ruhda o'tkazish (9), qadimgi milliy bayramlarni tiklash (8), maktab darsliklariga milliy qadriyatlar haqida ko'proq ma'lumotlar kiritish (8), nodavlat notijorat tashkilotlarga milliy qadriyatlarimizni rivojlantirish bo'yicha davlat grantlarini ko'paytirish (5) va katta yoshli insonlar bilan davra suhbatlari tashkil etish (7) variantlarini belgilaganlar. Mazkur savolga qo'shimcha ravishda o'z fikrlarini bildirish imkoniyati ham mavjud edi. Ba'zi respondentlar savolimizga siyosiy boshqaruvni tartibga solish, madaniyat xodimlari faoliyatini tartibga solish kabi javoblarni qoldirganlar.

Mas'ullardan bu masalaga jiddiy yondashishni, uning salbiy oqibatlarining oldini olish uchun chora-tadbirlar ishlab chiqishni so'rab qoldirik. Chunki milliylikning yo'qolib borishi millatning o'lishi demakdir. Targ'ib qilinayotgan g'arblashish "g'ariblashish" emasmikin? Yoshlarning ongi va dunyoqarashiga salbiy ta'sir etuvchi omillarni bu masalaga e'tiborsizlik sifatida ko'rishimiz mumkin, deb o'ylayman. Olib borgan tadqiqotimiz natijalari shuni ko'rsatadiki, milliy qadriyatlarimiz degan tushunchaning mazmuni va ko'lami biroz tor doirada muhokama etilmoqda. Aslida uning serqirrali taraflarini nafaqat o'zbek yoshlariga, balki jahonga ham namoyon etish fursati kelmoqda. Shuni unutmaslik kerakki, milliy qadriyatlarni unutmoq — milliy o'zlikni unutmoqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2021.
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
3. Jo'rayev A., To'xtasinov B. Sotsiologiya. – Toshkent: Fan, 2020.
4. G'ofurova D. Globallashuv va yoshlar ma'naviyati. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2019.
5. Mahmudov N., Xojiyev A. O'zbek milliy qadriyatlari va yoshlar. – Toshkent: Ma'naviyat, 2018.
6. Abdusamatova O. Sotsial hayot, ijtimoiy munosabatlar va sotsiologiya // Science and Innovation. – 2022. – T. 1. – № B5. – B. 353–354.
7. Parsons T. The Social System. – Glencoe: Free Press, 1951.
8. Giddens A. Sociology. – Cambridge: Polity Press, 2017.
9. Hofstede G. Culture's Consequences: International Differences in Work-Related Values. – Thousand Oaks: Sage Publications, 2001.